

**JAMOAT BIRLASHMALARI FAOLIYATI – KUCHLI FUQAROLIK
JAMIYATINING NEGIZI**

Qodirova Mamlakat Mo`minovna

Qarshi davlat universiteti, O`zbekiston tarixi kafedrası,
tarix fanlar nomzodi, dotsent

Annotatsiya:

Ushbu maqolada jamoat birlashmalari faoliyatining normativ-huquqiy imkoniyatlari va shartlari, ularning kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi ahamiyati muhokama etiladi.

Kalit soʻzlar: huquq, qonun, konstitutsiya, jamiyat, shaxs, fuqaro, huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati.

KIRISH

Jahonning ilgʻor, rivojlangan davlatlarida huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati asoslari va tamoyillari amal qilib, ijtimoiy taraqqiyotning, shaxs va jamiyat erkinligi hamda salohiyatini yanada yuksalib borishiga jiddiy taʼsir koʻrsatmoqda. Bugungi kunda, Oʻzbekistonda huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati asoslari takomillashtirilmogda. Oʻzbekiston dunyoning rivojlangan davlatlari bilan xalqaro hamkorlik qilish, mamlakatni rivojlantirish hamda huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va oʻz fuqarolari uchun munosib turmush sharoitini yaratish borasida barcha sohalarida islohotlar amalga oshirilmoqda. Millatidan, irqidan, jinsidan, diniy eʼtiqodidan va ijtimoiy kelib chiqishi hamda holatidan qatʼiy nazar, barcha uchun qulay boʻlgan bunday ijtimoiy makonni barpo qilishda nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalarining oʻrni salmoqlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Hozirda, Oʻzbekistonda besh mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari fuqarolik institutlari sifatida faoliyat koʻrsatmoqda. Mana shu nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalari Oʻzbekistonda adolatli fuqarolik jamiyati shakllanishining asosi boʻlib xizmat qilmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalari tom maʼnoda xalq-xohishi va intilishlarini, maqsad va manfaatlarini ifodalovchi ijtimoiy harakatlar, jamgʻarmalar va uyushmalardir.

Oʻzbekiston Respublikasida hozirda huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalari faoliyatining huquqiy asoslari ishlab chiqilgan va qabul qilingan.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalarining faoliyati, ularning ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki tobora ortib bormoqda. Adolatli

fuqarolik jamiyatiga yaqinlashgan sari boshqaruvning ko'plab funksiyalari davlat tasarrufidan o'zini-o'zi boshqaruv tizimiga o'tib boriladi. Aholining turli qatlamlari, shaxslar muayyan nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalari orqali jamiyat boshqaruvida faol qatnashadilar. Shu asnoda jamiyat o'zini o'ziboshqarib boradi. Bu jarayonda qaysidir shaxs, hokim yoki rahbar xohish-irodasi, hukmronligi yoki muruvvati bilan emas, balki demokratiyaga asoslangan, fuqarolarning yuksak huquqiy madaniyati, dunyoqarashi ustuvor bo'ladi va shaxs ijtimoiy faoliyati asosini tashkil qiladi.

Jamiyatda nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalarini rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad jamiyat a'zolarining manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash va himoya qilishdan iboratdir. Nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalari o'z mohiyatiga ko'ra fuqarolarning o'zligini anglashga, ijtimoiy munosabatlarda o'zini-o'zi boshqarishga qaratilgan, ixtiyoriy tarzda birlashgan, muayyan bir maqsadga erishishni nazarda tutgan fuqarolik jamiyatining institutlaridir. Mamlakat aholisining turli qatlamlari, har bir fuqaro muayyan nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalari orqali o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarib, jamiyat va davlat boshqaruvida faol qatnashadi. Jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalari nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII-bobi «Jamoat birlashmalari»ga bag'ishlangan. Mazkur bobning *56-moddasida* «O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar vafuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi», *58-moddasida* «Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi», *59-moddasida*

«Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir», *60-moddasida* «Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar», *61-moddasida*

«Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi» hamda *62-moddasida* «Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi», deb mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı demokratik islohotlar fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalarining o'zni va ahamiyatini tobora oshirmokda. Bunday tashkilotlarning muttasil ortib borayotganligi buning yaqqol dalilidir. Nodavlat va notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalarining faoliyatining huquqiy asoslari yaratilgan.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, Yangi O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat vaadolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishdek maqsadni amalga oshirish jamiyat a’zolarining yuksak ongi, madaniyati, fidoiyligi va ijtimoiy- siyosiy faolligiga bog‘liqdir. Kishilar o‘zliklarini anglab kim edilar, kim bo‘ldilar va qaerga, qaysi yo‘ldan borishlarini aniq tasavvur qilish, mamlakatda kechayotgan yaratuvchanlik ishlarida shunchaki tomoshabin emas, balki ularning tashabbuskori, bevosita ishtirokchisi sifatida faoliyat ko‘rsatishlari kerak bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: 2022. //https://lex.uz/ru
2. O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi «Jamoatbirlashmalari to‘g‘risida»gi qonuni. //http://old.lex.uz/docs/111825.
3. O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 apreldagi «Nodavlatnotijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi qonuni. //http://old.lex.uz/docs/11360.
4. www.ziyonet.uz